



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 242-247 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSİYALAR DAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TARTIBGA SOLISH



Xodjimamedov Akmal Ashurovich

Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti v.b., PhD,

Email: khodjimamedov@rambler.ru

ORCID: 0000-0002-0876-6671

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosiy e'tibor innovatsion moliyaviy xizmatlar va texnologiya sohalarida o'sib borayotgan segment bo'lgan FinTechga qaratilgan bo'lib, unda texnologik startaplar va yangi ishtirokchilar moliyaviy xizmatlar sanoati tomonidan an'anaviy ravishda taklif qilinadigan mahsulot va xizmatlarga innovatsion yondashuvni qo'llashning innovatsion usullarini qo'llash holatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada bank tizimini rivojlantirishda moliyaviy innovatsiyalarni qo'llash hamda ularni tartibga solish yo'naliishlari borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bank, innovatsiya, Big Data, raqamli texnologiyalar, FinTech, RegTech, SupTech.

Abstract. This article focuses on FinTech, a growing segment of innovative financial services and technology, and examines how technology startups and new entrants are applying innovative approaches to products and services traditionally offered by the financial services industry. The article also discusses the application of financial innovations in the development of the banking system and their regulatory directions.

Key words: Banking, innovation, Big Data, digital technologies, FinTech, RegTech, SupTech.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется финтеху – растищему сегменту инновационных финансовых услуг и технологических отраслей, а также рассматривается, как технологические стартапы и новые участники применяют инновационные подходы к продуктам и услугам, традиционно предлагаемым в сфере финансовых услуг. В статье также рассматриваются вопросы применения финансовых инноваций в развитии банковской системы и направления их регулирования.

Ключевые слова: Банковское дело, инновации, Big Data, цифровые технологии, FinTech, RegTech, SupTech.

Kirish.

Bugun biz jahon iqtisodiyotida tijorat banklarining innovatsion faoliyati banklarga qanday ijobji ta'sir ko'rsatayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Hozirgi vaqtga kelib, banklar oldida raqobatbardoshlikni saqlash maqsadida ichki innovatsion jarayonlarni modernizatsiya qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Shunday ekan, hozirgi

vaqtida bank sektorida muvaffaqiyatning asosiy kalitlaridan biri bu – banklarning innovatsiya siyosatidir.

Kelgusida ilg'or bank texnologiyalarini rivojlantirish, bank mahsulotlari va xizmatlari sifatini oshirish banklarning asosiy e'tiboriga aylanishi mumkin. Shunday qilib, har bir kredit muassasasining rivojlanishi uchun zamonaviy iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda butun bank sektorini rivojlantirish bo'yicha izchil va maqsadli siyosat olib borish zarur. Innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlari portfelini kengaytirish, shuningdek, tijorat banklari tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bank faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirishning eng muhim shartlaridandir.

Globallashuv sharoitida banklar faoliyatiga innovatsiyalarni faol joriy etish orqali yangi turdag'i raqamli mahsulot va xizmatlarni taqdim etish bank tizimini tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirishni taqozo etmoqda. Bu holat milliy, mintaqaviy va global darajadagi tartibga soluvchi institutlar faoliyatini transformatsiyalash, ularning tartibga solish bilan bog'liq funksiya va vakolatlarini raqamlashtirish jarayoniga muvofiqlashtirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda.

Shunga mos ravishda nafaqat milliy, balki xalqaro darajadagi tartibga solish institutlari ham moliyaviy texnologiyalardan foydalanish jarayonini tartibga solish borasida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda. Xususan, xalqaro miqyosda bu jarayonda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (Basel Committee on Banking Supervision (BCBS) va Molivaviy barqarorlik bo'yicha kengash (Financial Stability Board) tomonidan raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida yangi bank innovatsiyalarini joriy etishda yuzaga keladigan risklarni inobatga olgan holda tartibga solishga oid talablarni takomillashtirish zarurligini qayd etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bank tizimining raqamli transformatsiyasi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida bank innovatsiyalarini joriy etish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlardan Capriglione F., Tsindeliani A., Kovalenko A. va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan¹.

Banklar faoliyatiga innovatsiyalarini joriy etish, rejalashtirish va bank xizmatlarini ko'rsatishda raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yuzasidan Karminskiy A., Tumin V., Rikov S., Zverev A, Kubus R. kabi iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan².

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.Jumayev, E.Xoshimov, M.Qosimova va X.Xudayarovalarning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida bank xizmatlarini innovatsion rivojlantirish, banklarni raqamli transformatsiya qilish jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish va valyuta siyosatini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan³.

Tadqiqot metodologiyasi.

¹ Capriglione F. The Bank of Italy //Italian Banking and Financial Law: Vol I, Supervisory Authorities and Supervision. – London : Palgrave Macmillan UK, 2015. – C. 145-176.; Tsindeliani I. A. et al. Digital transformation of the banking system in the context of sustainable development //Journal of Money Laundering Control. – 2022. – T. 25. – №. 1. – C. 165-180. Kovalenko V. V. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF FORMATION OF MARKETING STRATEGY OF BANKING INNOVATIONS. 40 //НОБЕЛІВСЬКИЙ ВІЧНИК. – 2020. – Т. 40.

² Kubus, Renata & Fernández, Sara & Mascareñas Pérez-Iñigo, Juan. (2019). Innovation ecosystems in banking and monetary sector: competitiveness versus sustainability. 1. 19-44. 10.32870/myn.v0i41.7512.

³ Jumayev N. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatga nima beradi?. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 10-son, 2018 y.; Xoshimov E.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosatini takomillashtirishning metodologik jihatlari. Dis. ... i.f. bo'yicha fan doktori (DSc). – T., 2022; Xudayarova X. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Dis. ... i.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD). – T., 2020.

Mazkur tadqiqotda analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, tarkibiy tahlil, grafik tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda YeI tomonidan 2007 yilda to'lov xizmatlari Direktivasi (Payment Services Directive) to'lov xizmatlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar kuchga kirdi. 2016 yilda Ittifoq tomonidan to'lov xizmatlari Direktivasini yangilandi va uning takomillashgan 2 versiyasini (Payment Services Directive 2 (PSD2)) ishlab chiqildi. Dastlabki deriktivada mavjud bo'lgan muammolar yangi direktivada bartaraf etildi. PSD2 2016 yil 12 yanvarda kuchga kirdi va Ittifoq tomonidan 2018 yil 13 yanvargacha a'zo mamlakatlar qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritish va amaliyotida joriy etish belgilandi.

Ushbu Direktivaning asosiy maqsadlari quyidagilar:

Yevropa to'lovlar bozoriga mamlakatlar integratsiyasini kuchaytirish;

Bozorga yangi ishtirokchilarni jalb etish orqali to'lov xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotlar uchun raqobat muhitini yaratish;


To'lov operatsiyalarini xavfsizligi va uzlusizligini ta'minlash.

PSD2ni joriy etishda asosiy e'tibor chakana to'lovlarni rivojlantirish bo'yicha bank tizimi va moliyaviy texnologiya kompaniyalarida innovatsiyalardan keng foydalanish, bozor ishtirokchilari o'rtaida raqobatni qo'llab-quvvatlash, to'lov operatsiyalari xavfsizligini ta'minlash va iste'molchilar ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan.

PSD2 mijozlar autentifikatsiya jarayoni, xavfsiz ochiq aloqa standartlari bo'yicha tartibga soluvchi texnik standartlar bo'yicha ko'rsatmalarni yaratadi. Yuqoridagi uchta usuldan kamida ikkitasini joriy etish lozimligi PSD2da belgilab qo'yilgan. Direktiva masofaviy moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda mijozlarning bank innovatsion mahsulotlariga bo'lgan ishonchiga erishish va kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan.

"Xalqaro hisob-kitoblar banking Bazel qo'mitasi tomonidan 2017 yilda banklar tomonidan moliyaviy texnologiya loyihalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar (Sound practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors) e'lon qilindi va 2018 yil 19 fevralda amaliyotda joriy etildi. Hujjatda bank tizimiga Big Data, bulutli texnologiyalar kabi raqamli innovatsiyalarni hamda FinTech kompaniyalari faoliyatiga innovatsion to'lov xizmatlari, kreditlash platformalarini ueng joriy etish bo'yicha potentsial risklarning ta'siri, oqibatlari va bashoratlari aks etirilgan"[1]. Hujjatda asosiy e'tibor banklar va FinTech kompaniyalari faoliyatida raqamli innovatsion mahsulotlarni joriy etishga moslashishi, masofaviy xizmatlar xavfsizligini ta'minlash hamda tranformatsiyalash jarayonlarini nazorat qilish, tartibga solish bo'yicha standartlarini ishlab chiqish zarurligiga qaratilgan.

Bank tizimida innovatsion bank mahsulotlarini joriy etish maqsadlari va asosiy yo'nalishlari 1-rasmida keltirilgan.



1-rasm. Bank tizimida innovatsion bank mahsulotlarini joriy etish maqsadlari va asosiy yo'nalishlari⁴

2019 yilda raqamli aktivlar va raqamli xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga riskka asoslangan yondashuv bo'yicha ko'rsatmalar yangilangan holda chop etildi. Ko'rsatmalarda kriptovalyuta operatsiyalarida pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishning oldini olish bo'yicha talablar kuchaytirildi. Bunda virtual valyutalar bilan operatsiyalarni tartibga soluvchi qonunchilikni o'rnatishda asosiy qadam bo'lib, regulyatorlar uchun raqamli moliyaviy aktivlarni tartibga soluvchi milliy qoidalarni yaratish uchun asosdir.

FATFning raqamli va kripto aktivlar bilan amalgalashuvchi operatsiyalariga doir yo'riqnomasi AQSh Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha G'aznachilik tizimining "FinCEN, Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash tarmog'i" yo'riqnomasiga o'xshash bo'lib, u "FinCEN qoidalari konvertatsiya qilinadigan virtual valyutalardan foydalangan holda ma'lum biznes modellariga qo'llash" (Application of FinCEN's Regulations to Certain Business Models Involving Convertible Virtual Currencies) yo'riqnomani ishlab chiqqan. Ushbu yo'riqnomada virtual valyuta birjalari bank tizimi bilan bir xil darajada tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar virtual valyutalar orqali to'lovlarini amalgalashuvchi mijoz uchun identifikatsiya talablarini qo'yishga qaratilgan.

FATF ushbu ko'rsatmada kripto valyutalar kabi raqamli innovatsion mahsulotlar bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq asosiy risklarini ko'rib chiqadi.

huquqiy jihatdan tartibga solish;

moliya bozorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish;

RegTech, SupTech, BigDataH SmartData, mobil ilovalar, Sun'iy intellekt, robotlashtirish, Biometriya, Open API kabi raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish;

"Masofadan identifikatsiya qilish", "Tezkor to'lov", "Moliyaviy xizmat va mahsulotlar uchun bozor" platformalari asosida moliyaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish.

2-rasm. Bank tizimi va moliyaviy korxonalar faoliyatida innovatsion mahsulotlarni joriy etish vazifalari⁵


⁴ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁵ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

“Bundan tashqari, 2018 yilda FATF to’lov va investitsiyalar uchun ishlatalishi mumkin bo’lgan raqamli aktivni yaratish bo’yicha qirqta asosiy qo’shimchalarni ishlab chiqdi” [3]. Xalqaro hisob-kitoblar banki mutaxassislarining fikriga ko’ra, ko’plab milliy bank idoralari nobank kredit tashkilotlarini bank litsenziyalarini olish uchun ishlashni talab qiladi. Shu bilan birga, bank faoliyatini litsenziyalash usulini qayta ko’rib chiqish zarurati tug’ildi.

Bank tizimi va moliyaviy korxonalar faoliyatida innovatsion mahsulotlarni joriy etish bo’yicha bir qator vazifalar mavjud (2-rasm).

“Tijorat banklari faoliyatini raqamli transformatsiyalash, masofaviy bank mahsulotlarini yaratish, innovatsion xizmatlarni amaliyatga joriy etish jarayonida yuzaga keluvchi risklar ularga qo’yiladigan talablarning kuchayishiga olib keladi” [4]. Bank tizimida faoliyat yurituvchi sub’ektlarga ichki standartlarni qaytadan ishlab chiqish va takomillashtirish vazifalari yuklanadi. Natijada, Moliyaviy barqarorlik kengashi (Financial Stability Board, FSB) tomonidan RegTech (tartibga solish texnologiyalari) va SupTech (nazorat texnologiyalari) ishlab chiqildi.



3-rasm. RegTech texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari⁶

Moliyaviy barqarorlik kengashi tomonidan RegTech texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha asosiy yo’nalishlari 3-rasmda keltirilgan.

“RegTech qonunchilikka rioya qilish samaradorligini oshirish, risklarni nazorat qilish va moliyaviy kompaniyalar tomonidan tartibga solish majburiyatlarini engillashtirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanadigan banklarga qaratilgan”[5]. RegTech texnologiyalari bank tizimi va moliyaviy texnologiyalar faoliyatini tartibga solishni yanada optimallashtirish, xususan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga, mijozlarni identifikatsiya qilish jarayoni tezligini oshirishga, shuningdek, risklar darajasini monitoring qilish va kiber risklarga qarshi kurashishga yordam berish uchun mo’ljallangan.

Xulosa va takliflar

⁶ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Blokcheyn texnologiyasi bank tizimida mablag'larni boshqarish, mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlash, to'lov tizimlarini tekshirish, to'lovlar xavfsizligini ta'minlash, raqamlı pullar muomalasini tashkil etish va bank bo'limlarida hujjatlar almashinuvini tezlik bilan amalga oshirish imkonini yaratadi. Kross-kanallar orqali bank infratuzilmasida bank ekotizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Bank va nobank tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan raqamli xizmatlar sifatini oshirish va ko'lamenti kengaytirish uchun foydalanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar reestirini shakllantirish muhim hisoblanadi. Tijorat banklarining ekotizimga kiritilishi tashkilotning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi va boshqa ekotizimlar bilan raqobatlashish imkoniyatini oshiradi[6].

Tadqiqot natijalari bank innovatsiyalarining banklar evolyutsiyasidagi ahamiyatini ochib beruvchi quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, bank innovatsiyalarini amaliyatda joriy etilishi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmat sifatini, bozorda bank raqobatbardoshligini oshiradi va tegishli moliya sohasiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, innovatsion moliyaviy texnologiyalarni bank tizimida joriy etish tufayli bank mahsulotlari va xizmatlari sifat jihatdan yaxshiroq, arzonroq va qulayroq tarzda mijozlarga taqdim etilishi mumkin[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Basel Committee on Banking Supervision. Sound practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors. February 2018. BIS. <https://www.bis.org/bcbs/publ/d431.pdf>.
2. McWaters RJ, Galaski R. 2017. Beyond FinTech: a pragmatic assessment of disruptive potential in financial services. Paper presented at World Econ. Forum, August;
3. Buchak G, Matvos G, Piskorski T, Seru A. 2018. FinTech, regulatory arbitrage, and the rise of shadow banks. J. Financ. Econ. 130:453–83.
4. The Use of Supervisory and Regulatory Technology by Authorities and Regulated Institutions. Market developments and financial stability implications. 9 October 2020. Financial Stability Board;
5. IIF (Institute of International Finance). 2016. RegTech in financial services: Technology solutions for compliance and reporting. March. https://www.iif.com/Portals/0/Files/private/iifregtech_in_financial_services_-_solutions_for_compliance_and_reporting.pdf?ver=2019-01-04-142943-690;
6. Xodjimamedov Акмал. 2022. "IMPROVING BANKING INNOVATIONS WITH DIGITALIZATION OF THE BANKING SYSTEM". Economics and Innovative Technologies 10 (3):1-8. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a1.
7. Ashurovich K. A. Ways to improve banking innovations //European Journal of Life Safety and Stability. – 2022. – Т. 16. – С. 177-178.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

